**Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining 2024-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan**
**ISh REJASI**

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| **Ia. 2024-yil I yarim yillikda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari** | | | |
| 1. | Davlat dasturining 2024-yil II yarim yilligida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash. | 2024-yil iyul-dekabr | Direktor o‘rinbosarlari, tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonlarida hamda huzurida o‘tkazilgan majlis bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z muddatlarida va sifatli ta’minlash. | 2024-yil iyul-dekabr | Direktor o‘rinbosarlari, barcha tarkibiy bo’linma rahbarlari |
| 3. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda boshqa yuqori turuvchi tashkilotlarning topshiriqlarini o‘z muddatlarida va sifatli ijrosini ta’minlash. | 2024-yil yanvar-iyun | Direktor o‘rinbosarlari, barcha tarkibiy bo’linma rahbarlari |
| 4. | Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil iyul-avgust | Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov), Yuridik bo‘lim (U.Muxammadiyev), Jamlanma tahlil bo‘limi (X.Samandarov) |
| 5. | Bahodir Jalolov nomidagi boksga va Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari to‘g‘risida nizom loyihasini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024-yil avgust-sentabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova), Yuridik bo‘lim (U.Muxammadiyev), Jamlanma tahlil bo‘limi (X.Samandarov) |
| 6. | Agentlik tizimidagi 58 ta maktablarning laboratoriya xonalarini kimyoviy reagentlar va biologik to‘plamlar bilan ta’minlash. | 2024-yil iyul-dekabr | Moliya-iqtisod boshqarmasi (X.Shakirov), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| 7. | Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent shahridagi Prezident maktabini CIS (Council of International Schools) Xalqaro maktablar kengashi tashkiloti akkreditatsiyasidan o‘tkazish. | 2024-yil sentabr-dekabr | Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo‘limi (A.Axmuratov), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| 8. | “STEM” dasturi fanlarini o‘qitish bo‘yicha mahalliy o‘qituvchilar uchun rivojlangan davlatlarda qisqa va o‘rta muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish. | 2024-yil davomida | Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo‘limi (A.Axmuratov), O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish bo‘limi (S.Nazarov) |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 9. | Tajriba sinovdan o‘tkazilgan 5-sinflar uchun matematika, informatika, 7-sinf fizika, 8-sinf biologiya darslik majmualarini chop etish va maktablarga yetkazish. | 2024-yil oktabr | O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish bo‘limi (S.Nazarov), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| 10. | Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflari uchun matematika, 7-sinflar uchun biologiya, 8-sinflar uchun fizika darsliklari qorqalpoq tiliga o‘girish va 8-sinflari uchun qoraqalpoq tili va adabiyoti darsliklarini ishlab chiqish ishlarini yakunlash va chop etishni tashkil etish. | 2024-yil noyabr | O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish bo‘limi (S.Nazarov), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| **I. 2024-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha takliflari** | | | |
| 11. | Ko‘kdala, Pop va Oqdaryo tuman ixtisoslashtirilgan maktablarning rahbar va pedagog xodimlar lavozimlari uchun tanlov o‘tkazish hamda ishga qabul qilish choralarini ko‘rish. | 2024-yil iyul-avgust | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi (Z.Togayeva), Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar bilan ishlash bo‘limi (S.Kazakova), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| 12. | Bahodir Jalolov nomidagi boksga va Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablarining rahbar va fanlar bo‘yicha pedagog xodimlar lavozimlari uchun tanlov o‘tkazish hamda ishga qabul qilish choralarini ko‘rish. | 2024-yil iyul-avgust | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi (Z.Togayeva), Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| 13. | Agentlik tizimidagi ta’lim muassasalarida “Birinchi qo‘ng‘iroq” va “Mastaqillik darsi” tadbirlarini tashkil etish. | 2024-yil sentabr | Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi (G.Umarxonova), tizimdagi ta’lim muassasalari |
| 14. | O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi hamda 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini keng nishonlash. | 2024-yil oktabr | Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi (G.Umarxonova), tizimdagi ta’lim muassasalari |
| 15. | O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish. | 2024-yil dekabr | Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi (G.Umarxonova), tizimdagi ta’lim muassasalari |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 16. | Tizimdagi ta’lim muassasalarining ma’muriy boshqaruv xodimlari seminar va vebinarlar tashkil etish. Jumladan:<br>maktab direktorlari, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, psixologlar hamda pedagog xodimlar uchun;<br>vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari – HCHT rahbarlari uchun. | 2024 yil<br>avgust<br>oktabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova),<br>Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi (G.Umarxonova),<br>Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| 17. | Xalqaro fan musobaqa va olimpiadalariga Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilarini tayyorlash. | 2024-yil davomida | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov),<br>Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| 18. | Prezident maktablarida Kembrij (Cambridge Assessment International Education) tashkilotining STEM fanlaridan yangi tahrirdagi o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etish. | 2024-yil sentabrdan boshlab | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova),<br>Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo‘limi (A.Axmuratov) |
| 19. | Prezident va ijod maktablarida “O‘quvchilar almashinuv dasturi”ni amalga oshirish. | 2024-yil sentabr-dekabr | Prezident maktablari bilan ishlash bo‘limi (N.Baltabayeva),<br>Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov) |
| 20. | Prezident maktablari o‘quvchilarining xorijiy (“Duke of Edinburgh Awards” va “Extened Project Qualification Program”) ilmiy-tadqiqot tanlovlarida ishtirok etishlarini yo‘lga qo‘yish. | 2024-yil iyul-dekabr | Xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo‘limi (A.Axmuratov),<br>Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| 21. | Ijod maktablari o‘quvchilarini kasbga yo‘naltiruvchi (zamonaviy) to‘garaklar bilan qamrab olish. | 2024-yil sentabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova),<br>Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov) |
| 22. | Ijod maktablarida “Drama klublari” faoliyatini kengaytirish. | 2024-yil sentabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova),<br>Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov) |
| 23. | “Yangi O‘zbekiston” universiteti ishtirok etishi kutilayotgan xalqaro reyting tashkilotlarining reyting o‘tkazish talablarini o‘rganish hamda xalqaro reytinglarda ishtirokini tashkil etish choralarini ko‘rish. | 2024-yil avgust | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov),<br>“Yangi O‘zbekiston” universiteti (B.Yuldashev) |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 24. | “Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohiga tizimdagi maktablar o‘quvchilari uchun o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etish to‘g‘risida | 2024-yil iyuldan boshlab | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov), “Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohi (X.Maxmudov) |
| 25. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida tashkil etiladigan ko‘rik-tanlovlar va intellektual tadbirlarda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning jamoalari ishtirokini ta’minlash. | 2024-yil iyul-dekabr | Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘limi (G.Umarxonova), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| **II. 2024-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralari natijadorligi tahlili** | | | |
| 26. | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi faoliyatiga oid masalalarni yoritishda ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash.<br>Xususan, tizimdagi maktablarning kirish imtihonlari jarayonlari, seminar-treninglar, olimpiadalar, tanlovlar va ChSB sinovlari, shuningdek, xorijlik o‘qituvchilardan intervyular, xorijdagi dunyo reytingida yuqori o‘rinda turuvchi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan o‘quvchilar bilan suhbatlar, xorijiy safarlar, nufuzli xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan imzolangan memorandumlar va shu asosida amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish. | 2024-yil iyul-dekabr | Axborot xizmati (J.Jangirov) tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari bilan birgalikda |
| 27. | Bahodir Jalolov nomidagi boksga va Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga iqtidorli sportchi-o‘quvchilar qabulini amalga oshirish. | 2024-yil iyul | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) |
| 28. | Prezident, ijod hamda ixtisoslashtirilgan maktablarda 2024-2025-o‘quv yilining 1-2-chorak yakuni bo‘yicha summativ baholash sinovlarini o‘tkazish. | 2024-yil oktabr-dekabr | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| 29. | 2024-2025-o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida 1500 ta umumta’lim maktablarida joriy etilgan baholashning yangi tartibi bo‘yicha 1-2-chorak yakuni bo‘yicha summativ baholash sinovlarini o‘tkazishda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ko‘maklashish. | 2024-yil oktabr-dekabr | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov), Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova), Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |
| **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o‘rganish** | | | |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 30. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son farmoniga muvofiq maktablarda amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish. | 2024-yil dekabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova) va uning tarkibidagi bo‘linmalar (N.Baltabayeva, S.Kazakova) |
| 31. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida boks va gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyundagi PF-94-son farmoniga muvofiq ixtisoslashtirtilgan sport maktablari faoliyat samaradorligini monitoring qilib borish. | 2024-yil noyabr | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (T.Shermatov), Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov) |
| 32. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PQ-147-son qaroriga muvofiq maktablarda amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish | | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Shakirova), Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi (S.Ashirov) |